

8-Ma'ruza. Muammoli va loyixali ta'lim.

Reja:

1. Muammoli ta'limning nazariy asoslari.
2. Muammoli ta'lim darajalari.
3. Loyihali ta'lim turlari.
4. Loyihali o'qitishning faoliyat mazmuni.

Kalit so'zlar: loyiha, loyihali ta'lim, davomiyligi, loyihali o'qitish, loyihali faoliyat, didaktik yondashuv, daraja, vazifa, ehtiyoj, fikrlash, muammoli vaziyat, aqliy izlanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari. Harakatlar strategiyasi.
2. "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlantirish yili" davlat dasturi.
3. Jumaniyozova M. "Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari". p.f.n. dis. T. 2007y. 186 b.
4. Yo'ldashev J. "Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tadbiiq etishning asoslari" 12. Pedagogicheskie innovatsii i texnologiya. Materiali konferentsii. Belgorod 1999.

Xorijiy adabiyotlar

1. Gireeva L.D. «Otechestvennye pedagogicheskie innovatsii 60-80x godax XX vaka» Pedagogika, 1995 №5.
2. Innovatsionnyy meneyjment. Moskva, Vuzovskiy uchebnik 2006.
3. Medynskiy V.G. Innovatsionnyy meneyjment. Ucheb. M, INFRA 2002.
4. SHedrovitskiy P. Novshestva i innovatsii. Uchitelskaya gazeta 1995 №2
5. Innovatsionnoe obuchenie i nauka. Nauchno – analiticheskiy obzor M.1992.
6. Nikolas A. Upravlenie pedogogicheskimi innovatsiyami. L. 1993.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. 3. Mavlonova R. Rahmonqulova N. Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. G'ofur Gulom nashriyoti. T.2013.

Internet saytlari.

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz

1. Muammoli vaziyat, muammo, muammoli ta'lim, aqliy izlanish, muammoli ta'lim darajalari, muammoni yechish bosqichlari, muammoli ta'lim funktsiyalari, muammoli ta'lim metodlari.

Ta'lim maqsad va vazifalariga ko'ra, muammoli va an'anaviy bo'lishi mumkin.

Agar maktab pedagogik jamoasi o'quvchilarning fikrlash, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishni bosh maqsad qilib olsa, unda pedagogik jamoaning muammoli ta'lim asosida faoliyat yuritish ko'nikma va malakalarini shakllantirishi zarur. O'quv tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, ta'lim va o'quv – biluv jarayonlariga "muammoli o'qitish" didaktikasini joriy etib borish asosiy ish jarayoniga aylanmog'i kerak.

Muammoli ta'lim – tarbiya jarayonini faollashtirish, o'quvchilarning o'quv – biluv jarayoniga extiyoji, qiziqishi va hoxishlarini ortirishga sabab bo'ladi.

Agar o'quvchi muammoli ta'limning mazmun – mohiyatini yaxshi o'zlashtirib olsa, o'quv jarayonining shakl va metodlarini, texnik jixatdan jixozlanishini amalda qo'llay olsa, u o'z – o'zidan muvaffaqiyat keltiradi.

O'qituvchining didaktik jixatdan tayyorgarligi juda muhimdir. Chunki, muammoli ta'limning nazariy va amaliy jixatlarini atroflicha o'rganish – o'quv jarayonini san'at darajasiga olib chiqish demakdir. U o'z navbatida o'quvchining ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirib olishga kafolatdir.

Muammoli ta'limni muvaffaqiyatli kechish shartlari.

1. O'quv materialini muammolashtirish.
2. O'quvchining faol ishtirok etishini ta'minlash.
3. O'qitishning bola hayoti, yashash, turmush tarzi bilan, mehnati, o'yin bilan o'zaro aloqasini bog'lash.

Muammoli vaziyatlarni yaratish usullari.

1. O'qituvchi bolalarni ziddiyatni tug'dirish holatiga keltiradi va o'zlariga yechimni topishni taklif etadi.
2. Amaliy faoliyatdagi ziddiyatlar to'qnashuvini vujudga keltiradi.
3. Bir xil savolning o'ziga javobni berishda har xil fikrlarni bildiradi.
4. Hodisani har xil pozitsiyadan turib, ko'rib chiqishni taklif qiladi.
5. Taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga undaydi.
6. Aniq savollarga aniq yechimlarni topishni so'raydi.
7. Muammoli topshiriqlarni qo'yib, yechimini topishga har bir o'quvchini o'z shaxsiy fikr va qarashlarini so'raydi.

Muammoli ta'limning nazariy asoslari.

Umumta'lim maktablari, kasb – hunar kollejlari, akademik litseylar oldida turgan bosh maqsad talabalarning har tomonlama garmonik rivojlanishini ta'minlashdan iborat. O'quvchi, talaba shaxsini har tomonlama va garmonik rivojlanishini ko'rsatuvchi asosiy faktor, uning yuqori darajada mustaqil fikrlash, o'z nuqtai nazarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

Agar o'quv jarayoni o'quvchi – talabani mustaqil fikr yurita olishga o'rgatsa, unday ta'limni rivojlantirishga asoslangan o'quv – biluv jarayoni deb qabul qilish mumkin.

O'quvchini fikrlashga yo'naltirilgan maxsus vositalarni qo'llab, uni fanga qiziqtirish, erkin fikrlashga o'rgatish, rivojlantirish tizimi yaratib borilsa, buni muammoli ta'lim deyish muumkin.

O'quvchini faollashtirishda samarali ta'lim metodini amalga oshirishda yangicha didaktik yondashuv asosida olib borilishi tushuniladi.

O'quvchilarning aqliy fikrlashlarini tayyor, avvaldan tayyor, mavjud bo'lgan yo'llar bilan o'stirish maqsadga erishishning oddiy usuli bo'lib, u ijodkorlikka, izlanuvchanlikka olib kelmaydi.

Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchi tahlillar asosida qo'llash, sintez qilish, umumlashtirish, faktik materialni aniqlashtirish, o'zi mustaqil, yangi axborot oladi. Boshqacha aytganda, ilgari olgan bilimlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi, o'zlashtiradi va amalda qo'llay bilishga harakat qiladi.

Olgan bilimlarini hayotda qo'llashda o'qituvchi qo'llanma, darsliklardan tayyor bilim olishni bermaydi, u o'quvchi tomonidan izlab topiladi. Mana shu holatda izlanuvchanlik, sinchkovlik, ishlash metodikasi va ko'nikmalari shakllanib boradi.

Aqliy izlanish – juda murakkab jarayon bo'lib, u asosan muammoli vaziyat vujudga keltirilganda, aniq muammolar ko'rsatilgandagina vujudga keladi. Agar o'qituvchi o'quvchiga topshiriq berib, uni qanday bajarish yo'lini aytib, uni bajarishga undasa, bu muammoni yechishga kirmaydi. Bu o'quvchini tanxo o'zini yagona yechishga o'rgatadi xolos.

O'quvchini haqiqiy faollashtirish, uni muammoni mustaqil fikrlash, nazariy va amaliy tamoyillarini hisobga olish, tahlil orqali muammo yechimini o'zi o'ylaganidek yakun toptirishga olib kelishi kerak.

Muammoli ta'lim an'anaviy ta'limdan o'zining maqsad, printsiplari, metodlari, vazifalari jixatidan keskin farq qiladi. An'anaviy ta'limning bosh maqsadi ilgaritdan fanga ma'lum bo'lgan,

bilimlarni o'zlashtirish, o'quvchini fanga ma'lum ma'lumot bilan qurollantirish, ular haqida tushuncha, ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iborat.

2. Muammoli ta'lim darajalari.

Birinchi bosqich. O'qituvchi muammoni to'liq yoritadi va uni yechimini topib beradi. Qarshi savollar yordamida o'quvchilarni fikrlashga ixtiyoriy majbur etadi.

Ikkinchi bosqich. O'qituvchi muammoni qo'yib, uning mazmun – mohiyatini ifodalaydi. Keyin o'quvchilarni muammo yechimini mustaqil izlashga yo'naltiradi.

Uchinchi bosqich. O'qituvchi muammoni bayon etmaydi, balki muammoli vaziyat yaratadi. O'quvchilar mustaqil fikr yuritib, muammoli vaziyatdan chiqish yo'llarini izlab topadilar.

To'rtinchi bosqich. Bunda o'qituvchi izlanish sohasini belgilaydi xolos, muammoga yaqinlashib boradi, lekin uning mazmuni yoki yechimini ko'rsatmaydi. O'quvchini mustaqil faoliyatga yo'naltiradi.

Muammoli ta'limda o'qituvchi o'quvchini murakkab tushunchalar mazmuni bilan tanishtirish jarayonida unga sistemali ravishda muammolar qo'yib boradi, o'quvchiga axborot beradi, o'quvchi mustaqil xulosalar chiqaradi, umumlashtiradi va o'qituvchi yordamida ma'lum tushuncha, qoidalar, xulosalar chiqaradi.


Muammo – ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub'ektiv shaklidir.

O'qitish – shunday holatki, o'qituvchi o'z faoliyatida ta'lim mazmunini bayon qilishda qator muammoli vaziyatlarni keltiradi. Bir vaqtda shu yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida muammoni hal etishga undaydi.

Muammoli o'qish – o'quvchilar o'quv – biluv jarayonida muammoli vaziyatni tahlil etish, sintez qilish, umumlashtirish asosida uning yechimi bo'yicha takliflar, farazlar, keltiradilar, qarashlarning to'g'riligini isbotlashga harakat qiladilar.

Muammoli vaziyat – bu insonning intellektual qiyinchilikda paydo bo'lgan vaziyatdan chiqish jarayoni, bunda ma'lum va noma'lum faktlarga suyanib, maqsad sari intilish, vaziyatdan chiqish olishga intilish, qiziqishlar orqali ijodkorlikka, pirovard natijani olishga intiladi.

Psixologlar tomonidan muammoli vaziyatlardan chiqishda sermahsul ishlay olish, chiqish ketma – ketligi aniqlangan. U quyidagi ko'rinishga ega:



Muammoli vaziyatlardan aqliy harakat orqali chiqish ketma – ketligi bir qancha bosqichlardan iborat:

- muammoning vujudga kelishi;
- qiyinchilik nimadan iborat ekanligini tushunib olish;
- uning yechimi yo'llarini qidirib topish, bunda yechim bo'yicha fikr, takliflarni keltirish, isbotlash;
- taxminlarni isbotlash;
- muammoning yechimi to'g'riligini tekshirish.

Muammoli ta'limning bosqichlari

1. Muammoli vaziyatni keltirib chiqarish;
2. Muammoli vaziyatni asoslash, tushuntirish;
3. Muammoli vaziyatni o'quvchilar bilan tahlil qilish;

4. Muammoli vaziyat yechimining bir necha usullarini aniqlash;
5. Muammoli vaziyatning samarali yechimini dalillar bilan asoslash;
6. Muammoning natijaviy yechimini tanlab, har tomonlama baholash.

Muammoli ta'lim funksiyalari

- ijodiy fikrlash orqali bilimlarni o'zlashtirish shakllanadi (ayrim mantiqiy va ijodiy fikrlash faoliyatining shakllanishi);
- olgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olishlari shakllanadi;
- o'quv muammosi yechimiga mustaqil yo'l ochish ko'nikmalari hosil bo'ladi;
- ijodiy fikrlash tajribalari shakllanadi;
- ilmiy metodlar asosida izlanishga o'rganadilar va ularni amalda qo'llaydilar.

Ilmiy izlanish tajriba – sinovlar, pedagogik amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, muammoli vaziyatlarni hamma o'quv faoliyatlariga nisbatan quyidagi tiplarga bo'lish mumkin:

Birinchi tip. Agar o'quvchilar oldiga vazifalar qo'yilib, qo'yilgan masalalarga hayotdan o'quv materiali asosida javob talab qilinsa, muammoli vaziyat kelib chiqadi.

Ikkinchi tip. O'quvchilar ilgari darslarda olgan bilimlarini yangi mavzuni o'zlashtirish zarurligiga uchrab qolsalar. Yangi mavzuning yechimi ilgari olgan bilimlarini o'zlashtirganliklarini talab etib, vaziyatdan chiqa olmay qolsalar.

Uchinchi tip. Muammoli vaziyat shunday hollarda ham uchrashi mumkinki, o'quv topshirig'ini amalda bajarish uchun o'qituvchida isbot, nazariy asos bo'lmasa.

Muammoli o'qitish metodlari:

1. Muammoni bayon etish, bunda pedagog mustaqil ravishda muammoli vaziyatni keltiradi va uning yechimini mustaqil qidiradi va topadi.
2. Pedagog mustaqil ravishda muammoni qo'yadi, ammo uning yechimini o'quvchilarni jalb qilgan holda hamkorlikda izlaydilar, topadilar, xulosalaydilar.
3. Pedagog o'quv jarayonida o'quvchilar oldiga muammoni qo'yadi. O'quvchilar uni izlaydilar, axborot almashadilar, qayta ishlab, o'zlarining ishtiroklaridagina yechimini topadilar.
4. Muammoli vaziyat o'quvchilarning o'zlari vujudga keltiradilar. Uning yechimini boshqa o'quvchilar izlanishlari, yangicha fikrlashlari orqali o'zaro yechim qidiradilar, topadilar.

Muammoli ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan M.I.Maxmudov, M.N.Sketkin, A.M.Matyuvqikven, I.Ya.Lanker kabi olimlarning xulosalariga ko'ra quyidagi muammoli ta'lim metodlarini keltirish mumkin:

- tushuntirish, namoyish etish;
- muammoli bayon qilish;
- reproduktiv;
- ilmiy izlanish.

Yuqoridagilar asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muammoli o'qitish metodlari juda muhim rol o'ynaydi.

Chunki, muammoli ta'lim o'quvchini izlanishga, ijodkorlikka, erkin fikr yuritishga o'rgatadi. O'quvchida bunday sifatlarning shakllanishi, o'quv – biluv mas'uliyatini oshiradi, mustaqil bilim olish, izlanish uning kundalik odatiy ishiga aylanadi. Bu esa o'z navbatida, ta'lim mazmunini, takomillashgan standartlar, moderinizatsiya qilingan dasturlarni to'la o'zlashtirib olishga kafolat bo'ladi.

Loyiha – ko'pincha iqtisodiy – ijtimoiy yo'nalishda, qurilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda qo'llanilgan. Bu atama pedagogika faniga XX asr boshlarida kirib kelgan. Bu yo'nalishdagi o'qitish loyiha asosida istiqbolli o'qitish metodi deb qaralmoqda.

Loyiha asosida o'qitish- o'quvchining mustaqil ishlashi, fikr yuritishi, o'zi mustaqil o'zlashtirib olishini kafolatlaydi. Bu metod o'quv jarayonining pirovard natijasini olishda samarali bo'lib, o'quvchining o'quv – biluv faoliyatini tashkil etishda keng joriy qilish tavsiya etiladi.

Interfaollikni loyiha asosida tashkil etish hozirgi kunda eng aktual, yuqori samara beruvchi metod sifatida tan olinmoqda. Dars jarayonida loyihalar ustida ishlash aniq sotsial – ijtimoiy

masalalarning yechimiga qaratiladi. Masalan, ilmiy izlanishlarni, ijodkorlikni, ayrim keng qamrovli istiqbolli tadbirlarni, axborotlarni, amaliy masalalarni yechish va ijobiy hal etishda qulaylik tug'diradi.

Loyiha asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar fikr almashadilar, ijodiy izlanadilar, hamkorlik, hamijodkorlikda yechim qidiradilar va yechimni topadilar.

Loyiha asosidagi darslarning boshqa usullardan farqi shundaki, o'quvchilar axborotlarni izlab topib, qayta ishlab, umumlashtirib, o'zlari himoya qiladilar.

Loyiha asosida mashg'ulotlar quyidagi turlarda olib boradilar:

- yakka ishlash;
- juft bo'lib ishlash;
- kichik guruhlarda ishlash;
- katta guruhlarda ishlash.

Umuman dars loyihalari ko'pincha individual va guruhlarga mo'ljallab tuziladi. Yakka shaxsga qaratilgan loyihalarning afzalligi shundaki, umum o'quv – biluv ko'nikmalarini egallashda o'quvchining o'quv mehnatiga shaxsiy mas'uliyati juda yuqori bo'ladi. Chunki uning pirovard natijasi o'quvchi shaxsining o'zigagina bog'lanib qoladi.

Loyiha asosida guruhlarga bo'linib, darslarni tashkil etishda o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik, hamijodkorlik, samimiylik va do'stona munosabatlarda ish yuritiladi hamda ishni bunday holatda tashkil etishda dars sifati va samaradorligi sermahsul bo'ladi. Har bir o'quvchi o'zining ichki qobiliyatini ishga soladi. Loyiha yechimini topishga birgalikda faol qatnashadilar.

Dars loyihalari uning davomiyligiga qarab:

- kichik loyihalar (bir soatli);
- qisqa muddatli loyihalar;
- haftaga mo'ljallangan loyihalar;
- uzoq muddatga mo'ljallangan loyihalar (ko'pincha bunday loyihalar darsdan tashqari qo'shimcha ta'limni olishga xizmat qiladi) bo'lishi mumkin.

Loyiha asosida tashkil etiladigan darslar o'qituvchidan darsni tashkiliy jixatdan puxta o'ylangan, sifatli, ishchanlik muhitida o'quvchilarni jarayonga qiziqitira oladigan tarzda loyihalay olishni talab etadi.

O'quv jarayonini loyiha asosida tashkil etishda o'qituvchi faollikda ish yurituvchi emas, balki keng qamrovli ijodkor, pedagog rolini o'tashi talab etiladi.

O'qituvchi loyiha rahbari sifatida yuqori madaniyatli, ijodkor, izlanuvchan, tashkilotchi bo'lmog'i kerak. Loyihalar shunday tuzilishi kerakki, u o'quvchi shaxsiga qaratilib, uning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilishi shart. Loyihalar asosida o'quv jarayonini tashkil etishda o'qituvchi fidoyilik ko'rsatishi, o'quvchini ruhlantirishi, ularni qiziqitirish orqali, pirovard maqsadga erishish talab etiladi. Loyiha asosida tashkil etiladigan darslar va unga sarf etiladigan vaqt, tashkiliy ishlar, beriladigan va to'g'ri yo'lga soluvchi savollar oldindan rejalashtirilishi kerak. Undan tashqari, dars jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan kamchilik, xatolar, ularni oldini olish, jarayonning tahliliy tomonlari ham oldindan hisobga olinishi kerak.

Loyihali darslarni tashkil etish juda murakkab jarayon, bunda har bir o'quvchining mustaqil ishlashini tashkil etish muammosi yotadi. Ya'ni qaysi vazifalarni o'qituvchi bajarishi kerak va qaysilarini o'zaro hamkorlikda amalga oshirilishi oldindan ko'ra bilish kerak. Bularning hammasi loyihada ko'zda tutilmog'i shart.

O'quvchilarning mustaqil ishlashlari ko'pgina omillarga, jumladan: yoshiga, shaxsiy xarakteriga, moyilligiga, istak – hoxishlariga, ilgari loyiha asosida ishlagan – ishlamaganligiga, loyiha mazmunining murakkabligiga, guruhlarda ishtirok etuvchilarning o'zaro munosabatiga bog'liq bo'ladi. Loyiha asosida dars jarayonini olib borishda o'quvchining imkoniyati, qobiliyati, umumtayyorgarlik darajalari hisobga olinmog'i zarur.

Xulosa qilib aytganda loyiha asosidagi darslar:

- Loyiha asosidagi darslarning maqsadi, mavzu mazmuni dars jarayonidayoq to'la o'zlashtirib olinishi kafolatlanadi.

- Darslarda ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma, malaka va tayanch tushunchalarning o'zlashtirib olinishiga erishiladi.
- Iloji boricha o'quvchini o'zlashtirishi DTS talablari asosida bilim, ko'nikma, malakalarini montirongi, baholab borish nazarda tutiladi.

4.Loyihali o'qitishning faoliyat mazmuni.

Loyihali o'qitish faoliyati o'quvchining o'quv faoliyatini tashkil etuvchi jarayon hisoblanadi.

1. O'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv loyihalari, kichik loyihalarning maktab o'quvchilari tomonidan to'la bajarilishi ko'zda tutiladi.
2. O'quv loyihalari oldindan ishlab chiqarilgan mezon ko'rsatkichlari asosida baholanadi, loyihada predmetlararo maqsadlar ko'zda tutilsa, yakuniy baholar ham chiqarilishi mumkin.
3. Loyiha asosida faoliyat tashkil etilganda o'quv mavzularida rejalashtirilayotgan loyihani topshirish muddatlari ko'zda tutiladi.
4. Loyiha asosida o'quv faoliyatini tashkil etishga o'qituvchi rahbarlik qiladi va u loyihaning koordinatori hisoblanadi.
5. Loyihalar yakka shaxslarga va guruhlariga qaratilgan bo'ladi.
6. Loyiha topshiriqlarini aniq, ravon shakllantirilgan, uning maqsad va vazifalari tushunarli, aniqlangan, o'quvchilar bilan uning ijro yo'llari va mexanizmlari keltirilgan bo'ladi.
7. Ayrim hollarda yuqori sinf o'quvchilarining hoxish va istaklariga binoan loyihalarni shakllantirish loyiha rahbari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.
8. O'quv yili davomida o'rnatilgan tartibda tuzilgan loyihalar taqdimotini ilmiy konferentsiyalarda, pedagogik kengashlarda, metod birlashmalarda o'tkazish, himoya qilish yoki tanlovlar tariqasida o'tkazish mumkin.

Dars jarayonini loyiha asosida tashkil etish bosqichlari.

- 1.O'quv predmeti mavzusini va mazmunini tanlash;
- 2.Darsning o'quv mavzusi yuzasidan yagona umummaqsadni belgilab olish;
- 3.Darsning o'quv mazmunini ishlab chiqish, beriladigan nazariy va amaliy bilimlarni belgilash;
- 4.O'quvchi tomonidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan tushuncha, bilim, ko'nikma va malakalarni ifoda etish;
- 5.Darsning shakli, metod va vositalarini tanlash;
- 6.Darsning tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish uchun ta'lim oluvchi tomonidan sarflanadigan vaqt birligi hisobini belgilash;
- 7.Har bir bosqich natijalarini olish, mashq va misollar tizimini yaratish;
- 8.Nazariy tomondan olib borish, testlar, savollarni tuzib chiqish;
- 9.Loyihani dars jarayoniga tatbiq etish;

Dars jarayonini olib borish va yakunlash mexanizmini yaratish.Loyihali dars jarayonida o'quvchining: extiyoji, qiziishi, hoxish – istagi, maqsadi, qobiliyati, faoliyati, intellekti hisobga olinishi talab etiladi. Dars jarayonida o'quvchining individual xususiyati, tayyorgarlik darajasi, imkoniyatlari hisobga olinishi zarur.

Loyihalashtirilayotgan darsga tizimli yondashuv

Navbatdagi darsni loyihalashtirishda har bir o'qituvchi oldida bir savol ko'ndlang turadi, ya'ni darsning maqsadi, vazifasi, ketma-ketligi, izchillik, ijodiy muhit yaratish holatlarini qanday tashkil etish kerak?

Dars maqsadini belgilash va uni amalga oshirishda quyidagicha ish yuritish maqsadga muvofiq:

- o'quv materialini tanlash;
- uni didaktik talablar asosida tashkil etish;

- foydalaniladigan metodlar asosida o'quv jarayonini jixozlash;
- o'z faoliyatini funktsional tashkil eta olish;
- o'quvchi shaxsi va guruhlarda ish faoliyatini tashkil etish.

Loyihali darslarda guruh rahbarining vazifalari

1. Biror muammoli vaziyatni, mavzuni tanlash va shakllantirish, g'oyani olg'a surish va loyiha stsenariysini tuzish, vazifalarni belgilash, tizimga tushirish va yechimini hal qilish.

2. Loyihani shakllantirish bo'yicha ixchamlangan annatotsiya tuzish, so'nggi erishiladigan natijani va uning zaruriyatini aniqlash.

1. To'plangan mavzuni aniqlashtirish, loyiha materiali, strukturasi belgilash, loyiha hajmini aniqlash, loyiha yechimida har bir ishtirokchining izlanish olib borishidagi roli va o'rnini belgilash.

2. Loyiha ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, ish jarayonini olib borish va muddatlarini doimiy nazoratga olish.

3. Loyihani shakllantirishda, uning mazmunini bayon qilishda, kamchiliklarni aniqlash va hujjatlashtirishda doimiy maslahatlar berib borish.

Xulosa qilib aytganda, o'quv jarayoni puxta o'ylangan loyiha asosida tashkil etsa, har bir o'quvchi uning yechimida faol ishtirok eta olsa, o'quv jarayoni samarali kechadi. O'quv mazmunini dars jarayonidayoq ongli ravishda to'la o'zlashtirilishi kafolatlanadi.

Nazorat savollar

1. Muammoli ta'lim bilan an'anaviy ta'limni qiyoslab bering.
2. Aqliy izlanish nima?
3. Muammoli ta'lim darajalarini sanab bering.
4. Muammoli ta'lim bosqichlarini va metodlarini tushuntiring.
5. Loyihali ta'limning mazmun va mohiyati nimada?
6. Loyihalarning davomiyligi qanday belgilanadi?
7. Dars jarayonini loyiha asosida tashkil etish bosqichlari.